

INNOVATSION JARAYONLARNING PEDAGOGIKA FANLARIGA KIRIB KELISHI VA UNING RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ziyatova Barno Baxodirovna

"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17719370>

Annotatsiya: Bugungi kunda barcha sohalaridagi globallashuv jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi zamonaviy ta'lim muassasalari, shu jumladan, ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishni yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Maqolada innovatsion jarayonlarning pedagogika fanlariga kirib kelishi va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarining mazmuni va mohiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Innovatsiya, pedagogika fanlari, texnologiya, ta'lim, ta'lim mazmuni, ta'lim maqsadi, ehtiyoj, motiv, ko'nikma malaka.

Аннотация: Сегодня процессы глобализации во всех сферах и стремительное проникновение информации требуют налаживания системного управления инновационными процессами в современных образовательных учреждениях, в том числе образовательных учреждениях. В статье раскрыто содержание и сущность внедрения инновационных процессов в педагогическую науку и основные направления его развития.

Ключевые слова: Инновации, педагогические науки, технологии, образование, содержание образования, образовательная цель, потребность, мотивация, квалификация навыков.

Abstract: Today, globalization processes in all spheres and the rapid penetration of information require the establishment of systematic management of innovative processes in modern educational institutions, including educational institutions. The article describes the content and essence of the introduction of innovative processes into pedagogical sciences and the main directions of its development.

Key words: Innovation, pedagogical sciences, technology, education, educational content, educational goal, need, motive, skill qualification.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'zaro raqobat muhiti mavjud bo'lgan. Urushlar, zo'ravonliklar va kuch ishlatish hisobiga raqobatlashadigan davrlar juda uzoq davom etgan bo'lsa ham hozirgi kunga kelib o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy musobaqaga kirishishning yangicha usullari vujudga keldi. Chunki, sivilizatsiyaning ta'lim, bilim va o'rganish hisobiga asta-sekinlik bilan madaniylashib borish darajasi oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ham hozirgi kunda xalqlar, ijtimoiy guruhlar va yakka shaxslarning boshqaqalardan ustunligi yangicha paradigma – innovatsiyaga asoslanmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Innovatsion rivojlanish yo'lining afzalliklari, iqtisodiy samaradorligi hamda uning ijtimoiy jihatdan insonlarning vaqtini tejashi va boshqa tomonlari xususida juda ko'p tadqiqotlar e'lon qilingan. Innovatsion tafakkur tarzi yuqoridagi kabi foydalilik ko'fitsenti yuqori bo'lgan mahsulotlarni va ijtimoiy mexanizmlarni yaratishga qodir. Butun jamiyat a'zolarining innovatsion fikrlay olmasligi, bunday tafakkur tarzi faqatgina ayrim ijtimoiy guruhlar va shaxslargagina mansub bo'lishi mavzuning pedagogika fanlari bilan mushtarakligidan dalolat beradi. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion

rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak", deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Innovatsion tafakkur esa ana shu rivojlanish yo'lidagi har bir subyektning o'z ali, bilimi va salohiyatiga mos ravishda yo'nalishidir. Uning qisqa yoki uzunligi, samarasiz yoki natijador ekanligi aynan innovatsion tafakkurning namoyon bo'lish darajasiga bog'liqdir. Rivojlanishning hozirgi bosqichi pedagogika fanlari oldiga juda katta muammolar qo'ymoqda. Ma'lumki, pedagogik jarayonning obyekti o'quv yoiniki talabaga ma'lum bir bilimlarni berishning eng primitiv shakli ma'lumotlarni taqdim etish shaklida bo'lgan. Har bir bilim oluvchining dunyoqarashi hamda saviyasidan kelib chiqib, shuningdek, pedagogning mahoratiga tayangan holda ana shu ma'lumotlar singdirilgan. Uzoq yillar mobaynida bilimlar ana shu tarzdan avloddan avlodga o'tib kelgan va bu jarayondagi eng muhim jihati ana shu ma'lumotlarga nisbatan pedagogning monopol hukmronligi edi. Ya'ni, ustozgina o'quvchiga asrlar osha to'plangan bilimlarni yetkazib berishi mumkin edi. Endilikda vaziyat tubdan o'zgardi. Axborotlashuv asri insoniyatga oddiy etiket qoidalaridan tortib genetika, kvant fizikasi va insoniyat ruhiyatining eng nozik jihatlarigacha bo'lgan murakkab masalalarda ma'lumotlarni erkin, arzon va ortiqcha resurslar sarflamasdan olish imkoniyatini taqdim etdi. Bu esa o'z o'zidan bilimning yagona egasi bo'lgan pedagogning ijtmioiy qadr-qimmatini o'zgarishiga olib keldi. Mana shunday sharoitda endilikda pedagog oldida turgan muhim masala umumiy axborot oqimidan bilim oluvchiga mos, foydali va uni qiziqtiradigan hajmdagi ma'lumotlarni saralib, uning dunyoqarashiga mos ravishda yetkazib berish vazifasini qo'ymoqda. Bunday talablar esa innovatsiyaning pedagogika fanlari doirasiga ham kirib kelishiga sabab bo'ldi. Innovatsiya haqidagi dastlabki qarashlar insoniyat madaniy taraqqiyotining dastlabki darvaridayoq shakllangani aniq. Chunki, olov yoqishmi, uy-xo'jalikni saqlab turishmi, oziq-ovqat tayyorlashmi, qaysi sohada bo'lmasin kimdir yangicha, boshqacharoq va samaraliroq usulni o'ylab topgan va aynan ana shu o'zgacha yo'l keyinchalik innovatsiyalar deb atala boshlagan. "Innovatsiya bu ishlab chiqarish tizimiga yangi ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish sharoitlarining yangi kombinatsiyasini kiritishni anglatadi. U beshta vaziyatni o'z ichiga oladi: yangi mahsulotni taqdim etish, rivojlangan ishlab chiqarish usulini joriy qilish, yangi bozorni ochish va xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotni yetkazib berishning yangi manbasini yaratishdir. Texnologik innovatsiya – bu texnologik va iqtisodiy integratsiya, texnologik taraqqiyot va amaliy yangilikdir," - deb yozgan innovatsiya tushunchasini fanga kiritgan iqtisodchi olim Yozef Shumpeter. Iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan ishlab chiqaruvchi doimo mahsulot tannarxini arzonlashtirish va shu orqali bozordagi o'z mavqeini mustahkamlash harakatida bo'ladi. Bu esa mahsulot uchun sarflangan vaqtni, ishchi kuchini va homashyoni tejashni taqozo etadi. Odatda mahsulotning prototipi yaratilishidanoq u optimal bir shaklda bo'ladi va shunchaki yuqoridagi resurslarni qisqartirish yoiniki ularda kamaytirishni o'z bo'lmaydi. Bu jarayonga bilim, ilm va yangicha qarashlarni joriy qilish orqaligina bir xil ko'rinish va sifatga ega bo'lgan va avvalgiday yoki undan ham sifatliroq mahsulotni yaratish mumkin. Keyinchalik olib borilgan yuzlab tadqiqotlar va qo'lga kiritilgan yutuqlar bu eng to'g'ri va samarali yo'l ekanligini isbotladi va bu boradagi izlanishlar iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga munosib deb topildi. Pedagogik innvatsiyalar genezisi ham huddi shunday paydo bo'ldi. Axborotlashuvning jadallashuvi pedagogikaning kelgusidagi rivojlanishi yo'nalishini belgilashda hal qiluvchi rol

o'ynadi. Birinchidan, ta'lim subyektlarining oldida cheksiz axborot ummoni paydo bo'lib, pedagogning ana borliqdan talaba uchun zarur bo'lgan bilimlarni ajratib olib, subyektga yo'naltirish kerak bo'lsa, ikkinchidan endilikda pedagogika sohasidagi izlanishlar ma'lum bir ijtimoiy guruhlar doirasidan tashqariga chiqib global ahamiyatga ega bo'la boshladi. Shu sababli ham 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida pedagogika fanlarida nazariy va amaliy bosqichda keng qamrovli innovatsion o'zgarishlar namoyon bo'la boshladi va ular ikki muhim – ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish, umumlashtirish va yoyish; psixologiya va pedagogika fanlarining yutuqlarini amaliyotga joriy qilish masalasini hal etishi lozim edi. Globallashuv va axborotlashuv natijasida endilikda ilg'or pedagogik texnologiyalarni dunyoga tarqalishi osonlashdi. Bu esa yangicha sur'atlarda ta'lim berishning zamonaviy yo'llarini tarqalishini tezlashtirib yubordi. Axborotlashuvning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, endilikda ana'anaviy matn ko'rinishidagi ma'lumotlar bilan birgalikda audio va video materiallar ham erkin ravishda tarqala boshladi va bu bilim olish jarayoniga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Endilikda soha mutaxassislari va talabalar bilimlarni o'z tasavvurlaridagiday emas, ko'rgazmali tarzda olishi uchun imkoniyatlar kengaydi. Ma'lumki, Ya.Komenskiy ta'lim jarayonini yaxshi ishlaydigan mexanizm kabi bo'lishi va muqarrar ijobiy natija berishi haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Sinf-dars tizimining mohiyati ham aynan zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim berishni nazarda tutar edi. Bu o'rinda texnologiya didaktik jarayonda pedagog qo'lidagi asbob kabi muhim vazifani bajarishi kerak, degan qarash ilgari surildi. Aynan texnologiyalarning pedagogika fanlar uchun paradigmali ahamiyat kasb etishi natijasida bu sohaga innovatsion yondashuvlar yaqqolroq sezila boshladi. Chunki, innovatsion yondashuv mavjud tizimni butkul emas, qisman, samarali tarzda o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir. Innovatsion tafakkur tarzi, nega aynan so'ngi 50 yil davomida zarur bo'lib qolgani xususida Ken Robinsonning yangi ta'lim paradigmasi haqidagi qarashlaridan javob izlaymiz. Uning fikricha maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning 98 foizi nostandart, divergent tafakkur tarziga ega. Maktab ta'lim natijasida esa bunday ko'rsatkich 32 foizgacha pastlaydi. Olimning fikricha gap faqat o'qituvchilarda emas, balki ta'lim tizimining genezisidanoq standart fikrlashga moslashgan avlodni yetishtirish ko'zlangan edi.

Chunki, ta'lim tizimi so'ngi 300-yil davomida gurgirab rivojlanayotgan sanoat uchun datsgohlarni, texnika vositalarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatishga moslashgan, standart fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan edi.

XULOSA

Bu ayniqsa, sovet hokimiyatining sanoatlashtirish bilan birgalikda jamiyat a'zolarining, xususan xotin-qizlarni ijtimoiylashtirish va savodini chiqarish bo'yicha olib borgan siyosatida yaqqol namoyon bo'lgan. Jadal iqtisodiy o'sish sanoat korxonalari uchun malakali ishchilarni talab etadi va bunday kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilgan. Iqtisodiy o'zgarishlar qancha tez va murakkab o'zgarishlarni boshidan kechirar ekan, kadrlarga bo'lgan talab ham shunga yarasha oshib boravergan. Bu esa keyinchalik ta'lim tizimiga yangicha, innovatsion tafakkur tarziga ega bo'lgan avlodni yetishtirish vazifasini qo'ydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullayeva Sh. A. "Pedagogika" – Toshkent., Fan nashriyoti. 2004 2. Qoplonova M. Pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlar.–T.: "O'qituvchi", 2005.
2. Xoliqov.A. "Pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisod-moliya" nashriyoti 2011.

3. P.J.Ishmuxammedov. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T. 2004.
4. Ta'lim bo'yicha axborot texnologiyalari: tadqiqotlar. O'qish uchun qo'llanma
5. Yuqori. Tadqiqotlar. muassasalar "Akademiyaning" nashriyot markazi, 2008 yil.